Annotation: This article explores the artistic legacy of Ilhom Jabborov, an academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, an honored art figure of Uzbekistan, and a People's Artist of Uzbekistan. The paper provides an in-depth analysis of his works, particularly the sculptures "Amir Temur" and "Islam Karimov".

Keywords: Sculpture, Ilhom Jabborov, Amir Temur, Islam Karimov

Аннотация: В данной статье рассматривается творческое наследие Ильхома Джабборова — академика Академии художеств Узбекистана, заслуженного деятеля искусства Узбекистана и народного художника Узбекистана. Проведен детальный анализ его работ, в частности скульптур «Амира Темура» и «Ислама Каримова».

Ключевые слова: Скульптура, Ильхом Джабборов, Амир Темура, Ислам Каримов

KIRISH

Ma'lumki, haykaltaroshlikning ikki turi mavjud bo'lib, dastgohli va mahobatli iborat. O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekiston badiiy akademiyasi akademigi, professor Ilhom Jabborov asarlari O'zbekiston madaniyati va san'atida o'rni katta. Bu ijodkor haykaltaroshlikning mahobatli va dastgohli turida ijod qiladi. Ularning sarmahsul badiiy asarlari tarixiy shaxslar qiyofalarini aks ettiradi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, (1997), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1989). Respublika rassomlik bilim yurti (1965) va Toshkent teatr va rassomlik san'ati instituti (1971)ni tugatgan. 1995-yildan Respublika rassomlik kollejida o'qituvchi, professor Ilhom Jabborov o'rta Chirchiq tumanida tug'ilgan. Respublika rassomlik bilim yurti (1965-yil) va Toshkent teatr va rassomchilik san'ati institutini (1971-yil) tugatgan. 1997-yildan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va





dizayn institutida haykaltaroshlik ustaxonasi rahbari lavozimlarida faoliyat yuritib kelmoqda. Professor Ilhom Jabborov asarlarida an'anaviy realistik haykaltaroshlik uslubiga xos xususiyatlar milliy mavzu va ta'sirchan obrazlarni ifodalashda o'z aksini topgan. Dastgohli va mahobatli asarlari (portret, tarixiy shaxslar qiyofasi aks ettirilgan) umumlashma va ramziylik yo'lida yaratilgan. Ijodkor Ilhom Jabborov yaratgan har bir haykal va monument vatanimiz timsoliga aylangan. Poytaxtimizdagi "Ezgulik", "Mustaqillik" monumenti, Amir Temur obrazli haykallari, Toshkent, Samarqand va Shaxrisabzning Markaziy maydonlarida, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov haykallari O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida, Urgut tumanidagi Alisher Navoiy hamda Urganchdagi "Jaloliddin Manguberdi" kabi ko'plab tarixiy shaxslar haykallari muallifi. Ilhom Jabborovning haykallari obrazlarning tabiiy plastikasini va psixologik ifodaliligini ustalik bilan aks ettiradi. Ayniqsa, u shaxslarning ichki olamini ochib berishga alohida e'tibor qaratadi. Uning ijodi O'zbekiston haykaltaroshligi taraqqiyotida muhim o'rin tutib, milliy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.



ILHOM JABBOROV

Ilhom Jabborov hali-hanuz ijod bilan mashg'ul va yosh haykaltaroshlarga haykal yasashning sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda. Ilhom Jabborov o'zi haqida shunday deydi: - "menga haykaltarosh bo'lishlik istagi kichkinalik paytimda O'rtachirchiq tumanidan Toshkentga birinchi kelganimda, o'shanda yetti-sakkiz yoshlarda edim, Chorsu maydoniga kelib qolganmiz. Mening bolaligimdagi hayollarim uy o'lchamidagi ulkan dekorativ to'siq kompozitsiyalari bilan hayratda qoldi. O'sha atrofda tinchlik ramzi - gipsdan yasalgan kaptar turardi. Ko'rganlarim meni shunchalik quvontirdiki, men ham uyda shunday qilishga qaror qildim. Qishloqqa yetib keldim,





tuproqdan tepalik yasadim, yam-yashil o't ekdim. Men oddiy loydan kaptar yasadim va uni ohak bilan oq rangga bo'yadim. To'satdan men mushukning kaptarga qarab turganini, asta-sekin unga sudralib kelayotganini va keyin sakrab, kompozitsiyamni buzayotganini ko'rdim. Mushuk qichqirdi va qochib ketdi va men o'yladim: bu men asosiy narsada muvaffaqiyatga erishdim, degani - loyni tirik qushga o'xshash qilish. Bu meni shunchalik hayratda qoldirdiki, o'shanda men haykaltarosh bo'lishga qaror qildim". Albatta, ijodkorga bu katta yutuq mushukning haqiqiy kabutar ya'ni o'lja deb unga talpinishi Ilxom Jabborovning birinchi asaridayoq haykaltaroshlikka bo'lgan qobiliyatining namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. U asar ustida ishlarkan tanlangan obrazning hayoti kechmishlari u haqida yozilgan siyratga katta ahamiyat beribgina qolmay haykalning qo'yiladigan joyga va u yerda joylashgan arxetukturaga bog'liqmi, atrof muhitga, landshaftga to'g'ri tushadimi yuqmi o'rtasidagi mutanosiblikka aloxida e'tibor qaratgan va bu uning ijodida birinchi o'rinda bo'lgan.



Ilxom Jabborov. "Amir Temur" Toshkent. 1993-yil

Tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan diyorimiz buyuk sarkardasi Amir Temur haykali O'zbekiston mahoratli haykaltaroshi tomonidan Mustaqilligimizning ilk yillarida Toshkentda o'rnatildi. Ushbu haykal bronzadan, tarixiy janrda ishlangan bo'lib, 2 metrlik poydevor ustiga, vertikal holatda joylashtirilgan. Ilxom Jabborovning aytishicha Amir Temur haykalini ishlash uchun ko'plab namunalar tayorlagani, Toshkentda qad ko'targan haykalning qo'lida aslida jilov emas qilich ushlab turgan holatda berilgani va O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tavsiyasi bilan jilovga o'zgartirilganini aytadi. Asar topshiriqqa asosan ikki oy ichida ishlanishi kerak bo'lgan va birinchi gipsdan pastroq holatda bo'lgan. Yugoslaviyadan kelgan mehmonlar ikki oy ichida bunday otliq haykal yasash





imkonsiz, biroq gipsdan ishlangan haykal uzoqqa bormasligini aytadi. Shundan so'ng u haykal buzilib shu joyning o'zida, bronzadan quyilgan haykal o'rnatiladi. Ilxom Jabborovning bu otliq haykal dastlabki asari bo'lganligi bois Rossiya davlatida qad ko'targan Pyotr 1 haykalini asos qilib qilib olganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temur haykali juda ulug'vor va tanasiga nisbatan boshini kattaroq qilib ishlangan, buning sabababi ijodkor asarini ishlashidan oldin Amir Temurning hayotini uning qanday inson bo'lgani haqida juda ko'p izlanishlar olib boradi, izlanishlari davomida Amir Temurning qabri ochilganida Gerasimovga yordamchi sifatida ishlagan Malik Nabiyevning asarida tasvirlangan obrazdagi tasvirga tayangan holda shunday ishlaganini aytadi. Haykalga qarab Ilxom Jabborov Amir Temur hayotini puxta o'zlashtirganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temurning o'ng qo'lini ko'targan holatda ishlanishi, u hayoti davomida faqat bizning tinchligimiz uchun kurash olib borganligi bois Mustaqilligimiz bilan qutlayotgandek "ey xalqim sizlarga mustaqillik muborak bo'lsin, men sizlarga omonlik tilayman" deyayotgandek haykaltarosh uning qo'lga katta ahamiyat berib nima deyayotganini mohirona asoslab bergan. Chap qo'lida jilovni olishi esa ramziy ma'noni bildirib barchamizga tarix sahifalaridan ma'lum bo'lgan shunday katta davlatchilik qurishini bildiradi. Amir Temur haykali umrining ko'p qismini jang maydonida o'tqazganligi tufayli jang libosida qurollik tojidek yasatilgan dubulg'a sovut, qalqon va qilich bilan tasvirlangan. Haykaltarosh otga badiiylik bilan muskullarini ideallashtirishi Amir Temurning chertalari hamohang bo'lib uning naqadar jasur, siyosatli, mohir sarkarda ekanligini ko'rsatadi.



ILHOM JABBOROV. "ISLOM KARIMOV". QASHQADARYO. 2018-YIL

Islom Karimov haykali — O'zbekistondagi madaniy me'ros obyekti. Monumental san'at yodgorligi 2018-yil 30-yanvarda tavalludining 80 yilligi munosabati bilan o'rnatilgan. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida





joylashgan. „Mustaqillik“ MFY da joylashgan. Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan. Haykal markaziy o‘ringa ega bo‘lib, baland poydevor ustiga o‘rnatilgan. Bu esa Karimov shaxsining buyukligini va tarixiy ahamiyatini ta’kidlashga xizmat qiladi. Orqa fonda joylashgan simmetrik bino haykalni vizual markaz sifatida ajratib turadi, bu esa monumental san’atda ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biridir. Islom Karimov haykali tik turgan, oldinga qadam tashlayotgandek tasvirlangan. Bu harakat kelajakka intilish, barqarorlik va taraqqiyot ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Qo‘llarining tabiiy holatda bo‘lishi esa uning xalqqa yaqinligi va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan siyosatini aks ettiradi. Haykal bronzadan quyilgan, bu esa monumental san’atda keng tarqalgan materiallardan biri. Bronzaning silliq va jilolangan yuzasi haykalga jiddiylik va rasmiylik beradi. Poydevor qizg‘ish rangdagi toshdan ishlangan bo‘lib, bu rang energetika va qudrat ramzi sifatida ko‘rilishi mumkin. Ushbu haykal Islom Karimovning O‘zbekiston mustaqilligidagi rolini ta’kidlashga xizmat qiladi. Poydevordagi yozuv ham uning merosiga hurmat ramzi sifatida qaraladi. Baland joylashtirilgani uning tarixiy shaxs sifatidagi yuksak maqomini ifodalaydi. Umuman olganda, haykal klassik monumental san’at an’alariga asoslangan bo‘lib, hukumat arboblari uchun yaratilgan yodgorliklarda uchraydigan tipik elementlarga ega. U hokimiyat, barqarorlik va milliy g‘urur timsoli sifatida tahlil qilinishi mumkin.

XULOSA

Ilxom Jabborov o‘zining haykaltaroshlik mahorati bilan O‘zbekistonning muhim shaxslarining xotiralarini abadiylashtiradigan san’at asarlarini yaratgan. Uning Amir Temur va Islom Karimovga bag‘ishlangan haykallari nafaqat estetik, balki tarixiy va ma’naviy ahamiyatga ham ega. Har ikkala haykal o‘z davrining yodgorligi bo‘lib, ularda shaxslarning xarakteri va merosi aniq aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khayitboboeva KPA Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art The American Journal of Social Science and Education Innovations -2021-T3-Nº 11-C 14-20
2. Kultashev, B., Sadikova, S., & Kultasheva, N. (2021). Development of portrait of Uzbekistan during the early 20th century. Melbrun. Australia. Swinburne University of Technology.-2021.
3. 2. Алимкулова Д. 1920–1930-йиллар рангтасвири Ўзбекистон тасвирий санъатининг ривожланиш жараёни кесимида// Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – 2020.





4. 3. Лаковская В Л. Послевоенная живописе Узбекистана. Ташкент, 1991 С 88.
5. 4. Юнусхужаева Азиза Саъдулла Абдуллаев ижодида замон талқини. Тошкент. 2022 С 30 <https://mytashkent.uz/2016/07/29/ilhom-zhabbarov-nelegkij-no-schastlivyj-trud-skulptora/>
6. Ilxom Jabborov bilan suhbatdan



INNOVATIVE
WORLD





BADIIY MAHORAT VA USLUB

Nasiba Norova

BuxDU dotsenti, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Adabiyotshunoslikda uslub va uslubshunoslik muammosi hamon o'rganilayotgan muammolardan biridir. Ayniqsa, adbiyotshunos, uslubshunos qomusiy olim Abdurauf Fitratning "Adabiyot qoidalari" asarida ayni masala tadqiqiga oid ma'lumotlar o'rganilgan. Maqolada Fitrat va jahon uslubshunosligiga oid qarashlar va ta'riflar qiyosan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, uslub, uslubshunoslik, mahorat, "Adabiyot qoidalari"

Ijodkor uslubi va mahorati, ijodiy muhit, iste'dod, tafakkur va ifoda tarzi hamda individuallik kabi muammolarni yaxlit holda tekshirish, muayyan ijodkor asarlari badiiyat qonuniyatlari asosida adabiy-estetik kategoriya sifatida tadqiq etish muhimdir. Individual uslubda adabiy-badiiy kompozitsiyani belgilovchi omillarni aniqlash, uslubning poetik kanonlarini ko'rsatish, adabiyotshunoslikda o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Badiiy ijod namunalari yaratilar ekan, uslub va mahorat xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar ham to'ldirilib borilaveradi. Zero, har bir ijodkor o'ziga xos uslub ixtirochisi, yaratuvchisidir. Jahon adabiyotshunoslikda uslub muammosi V.Vinogradov, J.Robinson, J.Byuffon, V.Jirmunskiy, M.Xrapchenko kabi olimlarning qator tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa, A.Fitrat, U.Normatov, N.Shukurov, A.Rasulov kabi o'zbek adabiyotshunoslari ijodkor uslubi, individualligi masalasini turli aspektlarda tadqiq etishgan.

Shoirning uslubi bevosita uning badiiy mahoratida aks etadi. "Mahorat" so'zi lug'atda¹ "mohirlik", "ustalik", "epchillik" ma'nosida izohlanadi. Biroq lug'atlarda adabiy istiloh sifatida sharhlanmagan. Shunga qaramay, ijodkorning mahorati mavzusi yoritilgan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Bizningcha, badiiy mahorat avvalo, adibning e'tiqodi bilan chambarchas bog'liq. Bu uning ijodidagi g'oya va talqinlardan tortib, hatto shakl tanlashida ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ikkinchidan, ijodkor dunyoqarashning teranligi, bilim saviyasining kengligi bilan belgilanadi. Chunki lirikadagi har bir his-tuyg'u, nasrdagi voqelik ifodasida bular o'zining izini qoldiradi.

Uchinchidan, makon va zamonning farzandi o'laroq voqelikni teran idrok qilishi lozim. Zotan, san'atkorning vazifasi qanday mavzu tanlamasin, zamondoshlariga ta'sir o'tkazish, ularning did-saviyasini ko'tarishi, ma'lum ma'noda insoniy fazilatlarini muhofaza etmog'i joiz.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик (иккинчи жилд). – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.575.





To'rtinchidan, inson va insoniylikning mazmun mohiyatini tug'ri va aniq belgilashi muhim. Shundagina o'lmas asarlar dunyoga keladi. Adabiyot ham o'zining maqsad va vazifalaridan chekinmaydi. Shunga qaramay, u adabiy faoliyatning barcha turlarida juda keng qo'llaniladi. Biroq adabiy asarning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, "mahorat" tushunchasining mazmuni va u bilan bog'liq masalalar doirasi o'zgarib boradi.

Jahon va o'zbek adabiyotshunos olimlarining shoir mahorati va uslubi borasidagi fikrlari muhim nazariy manba hisoblanadi. Jahon adabiyotshunosligida ijodkor shaxsiyati, mahorati, uslubi, o'ziga xos ijod qirralari haqida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Masalan, ingliz nazariyotchi olimasi Jenefer Robinson "Adabiy asarda shaxsiyat va uslub" (Style and Personality in the Literary Work) tadqiqotida badiiy asarda uslubning namoyon bo'lishi, uning shaxsiyat bilan aloqasiga to'xtaladi, uslub tahlili shaxsiyat tahlili ekanligi va ijodkorning doimiy sifatlari hamda fazilatlari birlashib, uning uslubini shakllantirishi, lirik qahramonlar vositasida yuzaga chiqishini ta'kidlaydi².

Abdurauf Fitratning yozishicha, "shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'an sayi(n) o'ziga maxsus uslub yarata boshlaydir. Shoirning xayol, o'y, tushunish shakllari tugal, komil bo'lg'ach, o'ziga yarasha bir uslub ham borliqqa chiqqan bo'ladi. Uslubning adabiyotda o'rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar ma'lumotlarning eski boshqa shoirlar tomonidan aytilgan bo'lishi mumkindir. Ularning eskiligini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizg'a o'qita olgan kuch uslubdadir"³.

Chindan ham, hamma aytgan fikrni boshqalarga eskiligini bildirmasdan yetkazish ijodkorning haqiqiy mahorati va uslubida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda bir rivoyat yodga tushadi. Bir podsho tush ko'ribdi. Tushida barcha tishlari to'kilib ketibdi, shunda munajjmlarni tushining tabirini aytish uchun chorlabdi. Birinchi munajjim podshoga barcha qarindoshlaringiz vafot etib, siz yakka-yolg'iz qolib ketasiz debdi. Podshoning g'azabi kelib munajjimni o'ldirtiribdi. Boshqa munajjimni keltirishni aytibdi. Ikkinchi munajjim esa, quyidagicha javob beribdi: "Podshohim siz qarindoshlaringiz orasida eng uzoq umr ko'rasiz", - debdi. Podshoh munajjimga boshdan oyoq sarpo qilinishini buyuribdi". Bu rivoyatni xulosasi shuki, ikkala munajjim ham bir xil bashorat aytgan bo'lsada, uni qanday qilib yetkazish muhimligi. Shunday ekan Fitrat ta'riflagandek, bu ijodkordan katta mahoratni talab qiladi. Gap faqat yozishda emas, yozgan asarini hammaga yangi, orginal, betakror tarzda yetkaza olishda deb biladi. Yani bu o'sha ijodkorni o'zigagina xos uslubida namoyon bo'ladi.

²Jenefer Robinson. Style and Personality in the Literary Work. The Philosophical Review, Vol. 94, No. 2 (Apr., 1985), p- 240.

³Фитрат. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. 4-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 17.





Shuningdek, V.G.Belinskiy “uslub – bu talantning, fikrning o‘zi. Uslub mudom shaxsiyat, xarakter kabi original. Shu sababli har qanday ulkan yozuvchi o‘z uslubiga ega⁴, – deya uslubni belgilovchi ko‘plab xususiyatlar yig‘indisi bo‘lgan shaxsiyatga ahamiyat qaratadi.

Uslub – ijodkorning boshqalardan ajratib turuvchi bir qator jihatlarining yig‘indisi bo‘lib, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy siymosini aks ettiruvchi g‘oyaviy-estetik xususiyatlar umumlashmasidir. Shoir hayot, voqelikka qanday munosabatda bo‘lishi, u bilan bog‘lanish tarzi, uni badiiy idrok etish va tushuntirish usuli tufayli o‘ziga xos uslubini yaratadi. Taniqli fransuz adibi Flober “Uslub – hayot demakdir”⁵, – degan bo‘lsa, fransuz olimi J.L.Leklerk de Byuffon esa “Uslub – bu shaxs”⁶ tezisini o‘rtaga tashlaydi.

Bunday ta‘riflar jahon va o‘zbek adabiyotida ko‘plab uchratish mumkin. Ijodkor qanday hayotiy tajriba to‘plagan bo‘lsa, voqelikning qaysi tomonlariga qiziqqan bo‘lsa, turmushning qaysi jihatlarini chuqur bilib, boshidan kechirgan yoki qanday tarixiy voqea-hodisalarning guvohi bo‘lsa, o‘z asarlarida xuddi shu narsalar haqida ko‘proq yozadi. Mavzu tanlash borasida, lirik qahramon xarakterini ochishda, davr odamlarining g‘oyaviy-estetik qarashlariga hamohang bo‘lish kabi shoirning individual qirralari mahorati va uslubida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan, shoir uslubini shakllantiruvchi quyidagi omillar, mezonlar, unsur va kanonlarga to‘xtalganmiz.

Uslubni belgilovchi badiiy-tarixiy, psixobiografik, ijtimoiy-psixologik, maishiy-individual omillar⁷ mavjud bo‘lib, ularning barchasida iste‘dod, mahorat, ijodkorlik, shoir mansub adabiy muhit, davrdagi yetakchi talablar, ijtimoiy-siyosiy jarayon kabilar muhim rol o‘ynaydi.

Shoir uslubini belgilovchi unsurlar: shoir hayotdan ilhom olib, uni badiiy tasvirlaydi, uni qanday his etsa, shundaydigicha kitobxonga taqdim etadi. Uning tili badiiy buyoqlarga ega bo‘lishi, jozibadorligi, hayotni o‘z qalbidan o‘tkazib, badiiy sintez qilishi asosida shakllanadi.

Ijodkor uslubi uning ijodiy niyati va badiiy g‘oyalarini, muallifni boshqalardan ajratib turadigan yozish uslubini amalga oshirish vositasi va usuli hisoblanadi. “Shoirning uslubi uning dunyoni ko‘rish va sanatni (asosan adabiy) idrok etish va bu hayot qonunlarini anglash bilan bog‘liq. Shunga asosan, uslubni belgilovchi ilmiy-estetik mezonlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: shoirning badiiy niyati, dunyoni ko‘rish va anglash

⁴Белинский В.. Полн. собр. соч. Т.8. – Москва, 1955. – 79 с.

⁵ Мамажонов С. Лирик олам – эпик кўлам. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б.310.

⁶Жорж Луи Леклерк де Бюффон. Франция академиясига кириш нутки. <http://www.infoliolib.info/philos/buffon/buffon.html>.

⁷ Қаранг: Эргашев Қ. Алишер Навоийнинг насрий услуби масалалари. – Тошкент: Muharrir, 2012. – Б.6.

“Услубни ўрганишда, энг аввало, ана шундай омилларга тўхталиш, уларнинг ҳар бирини адиб услубининг шаклланишига қай даражада таъсир кўрсатганлигини аниқлаш зарур бўлади. Бундай омиллар қаторига давр тафаккури, маданияти, ахлоқи, адабий анъаналари, услуби ва бошқаларни киритиш мумкин”.





qobiliyati, o'z g'oyalarini yozish va kitobxonga yetkazish mahorati. Shu bilan birga adabiyot va san'atdagi uslub, obrazli tizimning barqaror yaxlit yoki umumiyliigi, badiiy ifoda vositalari, badiiy asar yoki asarlar majmuasini tavsiflovchi obrazli⁸ usullar uning mezonlari hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi ta'riflarni umumlashtirgan holda shunday xulosaga kelamiz: Uslub – ijodkorning poetik individualligi, iste'dodi, makon va zamonga mansubligi, badiiy mahorat, asarning barcha qismlariga tegishli lirik qahramon, janr, kompozitsiya, lirik motivlar, so'z tanlash, turli obrazlardan foydalanish, badiiy san'atlarni qo'llash kabi o'ziga xos estetik kanonlar yig'indisidir.



INNOVATIVE
WORLD

⁸ <https://www.google.com/search>





Ta'lim tarbiya jarayonida bolani turli hayotiy vazifalarni hal qilishga o'rgatish metodikasi

Ramazonova Yulduz

Navoiy innovatsiyalar universitetining 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (Phd) Rajabov Faxriddin

Annotatsiya: Hayotiy vaziyat - bu bolaning hayotini ob'ektiv ravishda buzadigan vaziyat (nogironlik, qarilik, kasallik, etimlik, qarovsizlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik, doimiy yashash joyining yo'qligi, nizolar va zo'ravonlik) oilada, yolg'izlik va hokazo) o'z-o'zidan engib o'tolmaydi.

Kalit so'zi: bolaning, tasavvurlari, haqiqatni, to'ldiradi, Ijodiy o'yinlar, o'yinda amaliy, taassurotlari, borliq, hayotdagi.

Hayotiy vaziyat - bu bolaning hayotini ob'ektiv ravishda buzadigan vaziyat (nogironlik, qarilik, kasallik, etimlik, qarovsizlik, kam ta'minlanganlik, ishsizlik, doimiy yashash joyining yo'qligi, nizolar va zo'ravonlik) oilada, yolg'izlik va hokazo) o'z-o'zidan engib o'tolmaydi. Ota-onalarning zamonaviy usullari erta yoshdan boshlab bolaning potentsial qobiliyatlarini maksimal darajada ochishga qaratilgan. Ilmiy va texnologik taraqqiyot atrofimizdagi dunyoni aql bovar qilmas tezlik bilan o'zgartirmoqda va bolalarni ular atrofdagi voqelikni etarli darajada idrok etadigan va ulkan axborot yukini osonlikcha o'zlashtiradigan qilib tarbiyalash kerak. Shu sababli, bolalarni tarbiyalashning eskirgan usullaridan voz kechish kerak, chunki ular bolalarga xos bo'lgan barcha imkoniyatlarni ochib berishga imkon bermaydi. Yaqin o'tmishda fenomenal deb hisoblangan bolaning qobiliyatlari hozirgi voqelikdagi mutloq me'yordir. Hatto 10 yil oldin, uch yoshli bolaning televizorni tugmachasi bilan yoqish qobiliyati ota-onalar uchun chaqaloqning erta rivojlanishi bilan faxrlanish uchun sabab bo'lgan va endi 2-3 yoshli bolalar noutbuk va planshetlarni o'rganishganda juda kam uchraydi.

Erta bolalikda insonning asosiy qobiliyatlari shakllanadi, shuning uchun chaqaloq bilan deyarli tug'ilishdan boshlab unga doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni o'rgatish kerak. Ota-onalarning asosiy vazifasi bolani to'g'ri tarbiyalashdir, buning uchun bolalarni tarbiyalash uchun to'g'ri uslubni tanlash kerak. [maktabgacha yosh](#). Ushbu tanlov bolaning qanday ulg'ayishiga, uning fe'l-atvoriga, boshqalarga bo'lgan munosabatiga, jamiyatda moslashish qobiliyatiga va boshqalarga bog'liq bo'ladi.

Bolani tarbiyalashning ko'p usullariga asoslangan ota-ona va bola munosabatlarining asosiy printsiplarini ko'rib chiqing:

- Ishontirish yoki muloqot - xotirjam xayrixoh ohangda, bolaga vaziyat tushuntiriladi va uni qanday hal qilish kerak, bu vazifa yoki muammo bo'yicha birgalikda ishlashni anglatadi;





- Ijobiy qo'llab-quvvatlash - rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash, maqtashdan iborat bo'lgan bolaning harakatlaridan yoki harakatlaridan keyin ota-onalarning javoblari ketma-ketligi. Ota-onalarning bunday reaksiyasidan kelib chiqadigan ijobiy his-tuyg'ular bola quvnoqligida, hayotga ijobiy munosabatda bo'ladi;
- Salbiy mustahkamlash - bolaning yomon xatti-harakati yoki xatti-harakati natijasida jazolash yoki taqiqlash. Bu istisno holatlarda, chaqaloqqa nima uchun jazolanganligini tushuntirganidan va uni jazolashda ota-onalar ham juda xafa bo'lganligini ko'rsatgandan keyin foydalanish kerak. Tez-tez jazolanish chaqaloqning tajovuzkorligini va itoatsizlikka moyilligini keltirib chiqarishi mumkin;
- "Sabzi va tayoq" - o'zaro bog'liqlik printsipli nomidan aniq. Bola xayrli ish uchun rag'batlantiriladi va yomon ishi uchun jazolanadi. Qoidaga qat'iy rioya qilish juda muhim, rag'batlantirishni unutmaslik kerak, ammo bu holda qonunbuzarlik uchun jazo so'zsiz bo'lishi kerak;
- "Bir-ikki-uch" - bu oddiy bolalarcha qo'zg'olonning namoyon bo'lishini engishga yordam beradigan oddiy kalkulyator. Sekin-asta, uning xatti-harakati haqida o'ylash uchun vaqt berib, chaqaloqqa va hatto xotirjam ohangda eslatma berish uchun uchtaga bo'ling. Agar bola to'xtamasa, oldindan kelishilgan jazo qo'llaniladi. Siz ushbu usulni ikki yoshdan oshgan bolalarga qo'llashingiz mumkin, ular nima uchun jazolanishi, vaziyatni qanday hal qilishlari mumkinligini batafsil tushuntirib berishadi;
- "Aksincha" - ma'lum bir yoshda ba'zi bolalar kattalarning istaklari va ko'rsatmalariga qarshi turishadi. Farzandingiz tabiatining bunday xususiyatini bilib, siz taqiqlash usuli bilan undan kerakli harakatlarni olishingiz mumkin. Usul qarama-qarshi, ammo ba'zi hollarda samarali. Voqeadan keyin bolaga nima bo'lganini va uning noto'g'ri ekanligini tushuntirish juda muhim, bu kulgili shaklda mumkin;
- Jismoniy jazo - ba'zi ota-onalar tomonidan qo'llaniladi, ammo salbiy oqibatlarga olib keladi, bolaning ruhiyatini buzadi va uning keyingi ijtimoiy moslashuviga ta'sir qiladi.

Siz biron bir usulni afzal ko'rmasligingiz kerak, bolalarni tarbiyalashning turli usullari bir vaqtning o'zida bir nechta usullardan foydalanadi, bundan tashqari, ishlab chiquvchilar o'quv jarayoniga qo'shimcha elementlarni jalb qilishadi. Barcha bolalar juda farq qiladi va bitta bolaga foyda keltiradigan narsa boshqasiga zarar etkazishi mumkin. Bolalarni tarbiyalash usulini tanlashda bolangizning xususiyatlarini, ijtimoiy va yashash sharoitlarini, shaxsiy imkoniyatlaringizni va boshqa ko'plab muhim omillarni hisobga olish juda muhimdir.





Ota-onalar va bolalarni rivojlantirish usullari

Bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita jarayon, ayniqsa bolalikda. Natijada [ilmiy tadqiqotlar](#) miya intensiv o'sishi davrida o'quv jarayoni eng samarali ekanligi isbotlandi, ya'ni aslida tug'ilishdan. Shuning uchun bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning ko'p usullari erta o'rganishga asoslangan.

Ko'pincha yo'naltirilgan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishning eng mashhur usullari [zamonaviy ota-onalar](#) bolalarini tarbiyalashda:

- Glen Doman tomonidan erta rivojlanish. Qonunni kashf etgan va isbotlagan ilmiy neyrofiziolog, uning asosida bolalarning rivojlanishi bo'yicha metodologiya ishlab chiqdi - miya faqat u ishlayotganda rivojlanadi va o'sadi;
- Erta rivojlanishning Waldorf usuli. Antroposofiya asoschisi Rudolf Shtayner ta'limda dunyoga estetik qarashni shakllantirishga asosiy e'tiborni qaratadi;
- Nikitinlar oilasida bolalarning erta rivojlanishi. Bolalarning xohish-istaklari va farovonligi ustuvor bo'lgan qulay sharoitlarda ota-onalar bilan hamkorlikka asoslangan majburlashsiz bolalarning tabiiy rivojlanishi;
- Mariya Montessorining erta rivojlanish metodologiyasi. Har bir bolaning shaxsiy qiziqishlari hisobga olinadigan, uni o'rganishga va rivojlanishiga undovchi rivojlanayotgan muhitni yaratish.

Farzandni tarbiyalash usulini tanlash ota-onada qoladi, shuning uchun chaqaloq tug'ilishidan oldin asosiylari bilan tanishish, o'zingiz uchun eng moslashtirilganini tanlash yoki eng yaxshisini birlashtirishga harakat qilish kerak.

Makarenko marksistik-leninistik pedagogikaning asoschisi hisoblanadi, uning maqsadi har tomonlama rivojlangan kommunizm quruvchilarini kommunistik tarbiyalash edi. Makarenkoning so'zlariga ko'ra, vatanga sodiq, bilimli, malakali, sharaf va burch hissi bilan, intizomli, xushchaqchaq, qat'iyatli, xushchaqchaq, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, qadr-qimmatini anglaydigan vatanparvarlarni tarbiyalash kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda faxr va uyat kabi etik kechinmalai ham paydo bo'ladi. Faxr hissining paydo bo'lishi uchun bola ongida konkret fazilatlar bilan atrofdagilarning ularga beradigan ijobiy bahosi, o'rtasida mavjud aloqadorlik haqida shakllangan tasavurlar ichki asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, 4-5 yoshli bolalar faoliyatning har xil turlarida erishadigan miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birgalikda ixtiyoriy raqsga tusha olish; tez chopa olish; axloqiy xususiyatlar (chidam, diqqat); bilan ota-onalari faxrlanadilar. Maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib oliy hissiyotlar tobora ko'proq bola hulq-atvorining motivlariga aylanib boradi. Hissiyotlar vositasida bolalar





jamiyatda o'natilgan estetik, axloqiy talablarga muvofiq ravishda o'z xohish istaklari, xatti-harakatlarini boshqara boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsiya va hissiyotlarning rivojlanishi bir qator shartlar bilan bog'liq. M.L.Lismamng tadqiqotlari ko'rsatishicha, emotsiya va hissiyotlar bolaning kattalari va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqoti jarayonida shakllanadi. Hayotining dastlabki yillaridan boshlab oiladan tashqarida tarbiyalangan bolalardagi sust emotsional rivojlanish butun hayotlar davomida saqlanib qolishi mumkin. Buning sababi shuki, maktabgacha tarbiya tashkilotlarida bitta kishiga ko'p bola to'g'ri keladi. Natijada tarbiyachilar har bir bola bilan emotsional kontakti kam bo'ladi. M.M.Koltsovaning ma'lumotlariga ko'ra, bolalardagi nosog'lom muhit darhol bolaning chizadigan rasmlarida aks etadi. Oiladagi noto'g'ri munosabatlar ba'zida bir tomonlama affektiv bog'liqlikni (ko'pincha onaga bo'lgan bog'liqlikni) yuzaga keltiradi. Bunda bolaning tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish ehtiyoji susayadi, bolaning xulq-atvori haddan tashqari kattalarga bog'liq bo'lib qoladi, bola, hatto, kuchli salbiy kechinmalar (masalan, o'zi bog'lanib qolgan odamga nisbatan rashk)ni his qilishi mumkin. M.M.Koltsova va V.S.Muxinaning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolada ota-onaga nisbatan rashkning namoyon bo'lishi oilada yangi farzand tug'ilishi bilan bog'liq bo'ladi. Emotsiyalar va hissiyotlar maktabgacha yosh davrida etakchi bo'lgan faoliyat turi —o'yinda juda intensiv rivojlanadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat yetakchi, balki xilma-xil kechinmalarga boy faoliyat turidir. Emotsiyalar va hissiyotlar bola faoliyati kechadigan ijtimoiy-psixologik vaziyat bilan bog'liq. Emotsiogen vaziyatlar, ya'ni kuchli kechinmalari uyg'otuvchi vaziyatlar yangiligi, g'ayrioddiylik bilan ajralib turadi. Bola kattalarga nisbatan ancha ko'p emotsiyalarni boshdan kechiradi. Buning sababi shundaki, bolaning hayoti tajribasi hali kam bo'lganligi uchun ko'p narsa unga g'aroyib va yangi bo'lib ko'rinadi. Vaziyatga ko'ra bolaning hissiyot va emotsiyalari ham ijobiy (muhabbat, xursandchilik), ham salbiy (jahol, nafrat) bo'lishi mumkin. Agar bola ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatiga ega bo'lsa ijobiy kechinmalar (stenik kechinmalar) hosil bo'ladi. Bordi-yu, vujudga kelgan vaziyatda bola o'z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, salbiy (astenik) emotsional kechinmalar paydo bo'ladi. Umuman olganda, bolalar hayotiy vaziyatlarga optimistik munosabatda bo'ladilar, ularga tetik, hayotdan mamnunlik kayfiyati xos. Emotsiya va hissiyotlarning ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, shartlari va yosh xususiyatlarini hisobga olish bolalarda maktabga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish imkonini beradi. Maktabga psixologik tayyorgarlikning asosiy komponentlaridan biri emotsional tayyorgarlikdir. Bu tayyorgarlik nafaqat maktabda ta'lim boshlashni xursandchilik bilan kutib olish, balki shu bilan birga oliy hissiyotlarning ancha rivojlangan bo'lishi, bola shaxsining emotsional xususiyatlari shakllangan bo'lishini taqozo qiladi



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. OILA PEDAGOGIKASI, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan, TOSHKENT - 2007 O.Hasanboyeva, D.Xoliqov... (116-121)
2. OILA PSIXOLOGIYASI, Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma a «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT - 2008 (B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog'Unov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova (177-178-b)
3. OILA PEDAGOGIKASI, (o'quv qo'llanma) (5110900 - Педагогикавапсихология) ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI ISHANOVA M. Andijon-2019 (126-134-b)
4. PEDAGOGIK MAHORAT, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 -"Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi"ning talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma № 396-19) Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011 A. XOLIQOV (127-128-b)

INNOVATIVE
WORLD





ОДИЛ ЁҚУБОВ НАСРИДА УЧ ОҒАЙНИ АРХЕТИПИК ОБРАЗИ

Mamtaliyeva Fotima Odiljon qizi

Андижон давлат университети

Ўзбек адабиётшунослиги кафедраси таянч докторанти

fotimamamtaliyeva@gmail.com

ORCID:0009-0001-1035-9274

Аннотация: Мақолада архетиплар ҳақида фикр юритилган. Хусусан, замонавий ўзбек насридаги уч оғайни архетип образи вариациялари, ижтимоий-сиёсий контекст таъсирида архетип образнинг трансформациялашуви ҳамда ёндош мотивлар билан муносабати, архетип образнинг муаллиф бадиий концепциясини ифодалашидаги аҳамияти Одил Ёқубовнинг йирик насрий асарлари мисолида таҳлилга тортилган. Уч оғайни архетип образи билан доимий тарзда боғланувчи йўл мотиви “Диёнат”, “Улуғбек хазинаси”, “Оққушлар, оппоқ қушлар” романлари мисолида текширилган. Мотивнинг ҳаёт йўли танлови сифатида ёндош мотивлар орасида етакчилик қилиши эътиборга олинган. Мазкур романларда ҳам йўл мотиви синов ҳамда мукофот/жазо мотиви билан боғланиши, шу тарзда “сафарга чиқиш – йўл – синов – мукофот/жазо” мотивлари схемаси тугаллик касб этиши ҳақидаги умумий хулосалар берилган.

Калит сўзлар: мотив, архетипик образ, архетипик учбурчак, конфликт, йўл мотиви

Кириш

Адабиётшунос Баҳодир Раҳмонов партиянинг адабиёт соҳасида чиқарган қарорларининг ҳаммаси унинг бу борадаги сиёсатига ўзгаришлар киритиш зарурати туғилган шароитда қабул қилинганлигини таъкидлайди [1,91]. Олимнинг ёзишича, 70-йиллар бошларида шўро ҳокимиятида ўзгаришлар юз берди, 60-йиллар бошларидаги “илиқлик”, нисбий эркинлик барҳам топиб, яна сўз, фикр, ижод эркинлигига тажовуз қилинди, цензура кучайди [1,91-92]. Шу жиҳатдан 60-йилларда муаллиф бадиий концепциясини ифодалаш учун йўл мотиви уч оғайни архетип образи билан боғланган бўлса (Пиримқул Қодиров “Уч илдиз”, Одил Ёқубов “Эр бошига иш тушса...”), 70-йиллардаги “турғунлик” даври шароитида ушбу мотив яна икки қарама-қарши персонаж билан боғланиб, бирини тасдиқлаш, бирини инкор этиш функциясини бажарган. Эътибор берилса, ижодкор учун эркинлик берилган даврда асар марказида учлик ҳаракатланиши, босимлар кўпайган, партия назорати кучайган даврда яна иккилик контрастланганини кўриш мумкин.

Метод





Хусусан, Одил Ёқубовнинг “Диёнат” романи айни шу даврда ёзилган. Гарчи “Диёнат” романи марказида “Нормурод Шомуродов – Отақўзи Умаров” конфликт турса-да, зиёли сифатида “Нормурод Шомуродов – Воҳид Миробидов” зиддияти орқали Отақўзининг маънавий жиҳатдан тубанлашуви, тоғасининг ҳақлиги янада ёрқинроқ намоён бўлади.

Миробидов назарида кўп йиллар давомидаги рақиблик “ёшликда, Москвада, ВАСХНИИЛда ўқиб юрган пайтларида, кейинроқ эса республикага қайтиб, Ер Ишлари Халқ Комиссарлигида бирга ишлаб юрган пайтларида... сабаби ёшлик, қизиққонлик, ҳар ишда, ҳар жиҳатдан биринчи бўлиш истаги билан содир бўлган”, лекин у ўша кунларни унутиб ҳам юборган. Шомуродов ва Воҳид Миробидов – йўл танловини амалга ошириб бўлган, ҳар бири ўз ҳақиқатлари билан яшайдиган олимлар. Миробидовнинг йўли – “иложи борича одамлар билан келишиб, муроса қилиб кетавермоқ”, шу орқали юксак марраларни забт этмоқ йўли. Шунинг учун Отақўзи Миробидов билан илк бор кўришгандаёқ унинг ҳам ўзига ўхшаган “танти йигит” эканлигини англайди. Ўз ўрнида Воҳид Миробидов ҳақ эканлигини “Шомуродов ҳаёти, унинг босиб ўтган йўли, илмий ва ижодий тақдири” билан далиллайди. Унингча, Шомуродовнинг поклик, адолат, принципалликка интилиши катта мартабалардан узоқлаштирган. Мирзачўлни ўзлаштириш юзасидан унга қарши мақола ёзиши Миробидовнинг Шомуродовга хиёнатидир. Шомуродовни қутқариб қолган декрет топилгандаёқ у енгилди. Лекин кейин айнан мана шу мавзунинг долзарблиги, аҳамияти тўғрисида “ўнлаб мақолалар ёзди”, илмда юксак марраларни эгаллаб, профессор бўлди. Ҳайдарнинг диссертация иши сабаб юз берган сўнгги тўқнашувда унинг ноҳақлиги, чала натижалар билан шов-шув кўтариб ёзилган илмий ишдан ҳам ўз манфаатини кўзлаши аён бўлади. Куёви Аброр Шукуровнинг Миробидовни эмас, Шомуродовни тан олиши (“Қани энди бу одам ҳам домла Шомуродовдай мард, танти, диёнатли бир инсон, пок бир олим бўлса! Аброр Шукурович ундан фахрланиб, бошига кўтариб юрмасмиди? Бу одам эса...”), Роман воқеалари давомида “Бу одам ҳам ўз экканини ўриши” кераклигини англаганлиги Миробидов учун жазо эди.

Таҳлил

О.Ёқубовнинг “Улуғбек хазинаси” романида Улуғбек ва Абдулатиф зиддиятига Али Қушчи ва мавлоно Муҳиддин зиддияти параллел қўйилиб, Абдулатифнинг ўлими, мавлононинг телба бўлиб қолиши орқали муаллиф дунёда яхшиликка яхшилик, ёмонликка ёмонлик қайтишини кўрсатиб беради. “Одил Ёқубовнинг романи мантиқан Улуғбекнинг шогирдлари Али Қушчи ва Муҳиддинларнинг гоҳ очиқ, гоҳ яширин давом этадиган мунозаралари, уларнинг хатти-ҳаракатлари,





ҳис-туйғулари асосига қурилган. Шунга қарамай, муҳитнинг умумийлиги характерлардаги номутаносибликни янада қабарик кўрсатишга имкон берган. Бир-бирига монанд тазйиқлар, зиддият ва алданишларга дуч келишса-да, мазкур характерлар ўзларини мутлақо қарама-қарши йўналишда тутадилар”[2,513]. Дарҳақиқат, бир ўқишда ушбу романда ҳам Али Қушчи-Мавлоно Муҳиддин иккилиги Қобил ва Ҳобил (Қобил ва Ҳобил қиссаси), Саидий ва Эҳсон (“Сароб”) сингари қарама-қаршилиги сақлангани кўринади. Бироқ синчиклаб эътибор берилса, роман марказидаги иккилик Али Қушчи-Мавлоно Муҳиддин-Қаландар Қарноқий шаклида учлик архетип образига ўзгаради. Қаландар Қарноқийнинг икки мударрисдан бироз кичик эканлиги, қолаверса, Улуғбек қаторида Али Қушчи ва Мавлоно Муҳиддин ҳам устоз саналиши жиҳатидан ушбу учлик архетипик схемаси яққол юзага чиқмайди. Лекин умумий контекстда олиб қаралса, қаҳрамон қаршисига кўндаланг қўйилган ҳаёт йўли танлови жиҳатидан Али Қушчи ва Мавлоно Муҳиддин қаторида Қаландар Қарноқийда ҳам танлов қилиш ҳаракатлари борлиги сезилади.

Қаландар Қарноқий Ясси ва Сиғноқни Бароқ ўғлон босиб олган вақтда Улуғбекдан паноҳ тилаб келган, Улуғбек билан биргаликда жанг қилиб, уни ўлимдан ҳам асраб қолган эди. Сипоҳликни тарк этиб, илм-фан йўлига кирган Қаландар Қарноқий Хуршидабонунинг тўйидан сўнг дарвешликни ихтиёр этади.

Али Қушчи ва Мавлоно Муҳиддинга устози Улуғбек томонидан берилган сўнгги топшириқ – васият икки дўст, мударрислар қаршисида, Хомуш томонидан Али Қушчи ҳатти-ҳаракатлари ҳақида айғоқчилик қилиш Қаландар Қарноқий қаршисида танлов ўлароқ юзага келади. Персонажлар қаршисида икки йўл, яъни устознинг сўнгги васиятини бажариб, амалдаги ҳукмдор таъқибига дучор бўлиш ёки ман этилган “куфр адабиётлар”ни топшириш орқали ҳукмдор қаноти остига кириш йўли туради. Али Қушчи Улуғбекнинг топшириғини “устоднинг фармони шогирд учун амри вожиб” дея чўчимай қабул қилди, Қаландар Қарноқий Мавлоно Муҳиддиндан фарқли ўлароқ “яхшиликка яхшилик қилмоқ” мақсадида Мирзо Улуғбекнинг сўнгги тилагини амалга оширишда Али Қушчига ёрдамлашди (Хомушнинг таклифини рад этади), Мавлоно Муҳиддин эса отаси Салоҳиддин заргар раҳнамолигида шамол қаёққа эсишига қараб тадорик бошлаётган эди. “Али Қушчи дўстининг уйига борганда хонада даставвал китобларга тўла бўлган қуббали жавонда “на бир китоб, на бир қўлёзма” қолганини, уларнинг ўрнига қимматбаҳо, ярқироқ чинни-баркашлар терилганини кўради”. Мана шу эпизоддаёқ муаллиф томонидан икки дўстнинг йўли ажралганлигига ишоралар берилади. “Али Қушчи ҳайрон бўлиб мавлоно





Муҳиддинга қаради. У ҳамон кўзларини юмиб, ёнбошлаб ётарди. Али Қушчи кўнглига ёпирилиб келган аллақандай ёмон туйғуни босиб:

- Кеча устод чақиртирган эркан, Кўксаройда бўлдим, - деди. Мавлоно Муҳиддин жойида бир қўзғалиб, йўталиб қўйди.

- Каминага ҳам чопар юбормишлар. Таассуфким, хасталик сабаб, изҳори ихлос этмоқнинг чораси бўлмади. Мавлоно Муҳиддин негадир қизаринқираб, Али Қушчини дастурхонга қистади". Салоҳиддин заргар сезгир, зийрак чол бўлиб, Улуғбекнинг тахтдан туширилиши, Хомуш бошчилигидаги жаҳолат тарафдорлари учун илм-маърифат "куфр" тарзида баҳоланишини англаган ҳолда ўзи ва ўғли учун энг мақбул ҳаракатни бошлаган эди. Жавондаги китоблар ўрнига қиммат баркашлар терилгани, Улуғбекдан чопар келса-да, Мавлоно Муҳиддин хасталиги боис устозининг ёнига бормаганини айтаётганда негадир қизаринқираши бир пайтлар Улуғбекнинг энг севимли шогирди бўлган мударрис отаси Салоҳиддин заргар маъқуллаган йўлни танлаганини билдиради. Гарчи Салоҳиддин заргар набираси Хуршидабонунинг Абдулазиз томонидан ҳарамга олиншини баҳона қилса-да, аслида хатарли йўлдан кетиб, бойликларидан Мосуво бўлиш – "бор-йўғини, авлод-у аждодларининг ҳаёт-мамотини қурбон қилмоқни лозим кўрмади".

Мавлоно Муҳиддиннинг танлови бевосита Қаландар Қарноқий танловига контраст қўйилади. Қаландар Қарноқий "дунёдан ҳақиқат топа олмаган инсон" "илм даргоҳини зоҳидлар гўшасига алмашиб, қаттиқ янглишгани"ни англаб, "илм аҳлига қайта юкуниб келган"и ҳолда Мавлоно Муҳиддин илмдан ошкора юз ўгирди. Қаландар сохта зоҳидлар, сохта дарвешлардан узоқлашгани ҳолда Мавлоно Муҳиддин сохта дин пешвосига яқинлашди.

"Улуғбек хазинаси"да қаҳрамонларнинг кескин тўқнашуви зиндонда юз беради. Зиндон қаҳрамонлар учун (Али Қушчи ва Мавлоно Муҳиддин) навбатдаги синов эди. "Ёзувчининг фантазияси асосида яратилган бу эпизод икки олим характери ёрқин кўрсатувчи ва ички дунёсини чуқурроқ англатувчи моментдир"[3,62]. Али Қушчи дўстига раҳми келган пайтларида, энаси Тиллабиби ёдига тушганда ваҳимага тушар, лекин "юрагидаги сирни оча олмаслигини, бу сирни очишга ҳаққи йўқ эканини тушуниб икки ўт ўртасида ёнар эди" Али Қушчида иккиланишлар борлиги уни юқорида қайд этилган салафлари (Ҳобил, Муқбил)дан фарқлагандек туюлиши мумкин. "Улуғбек хазинаси"да реалистик тасвир принципларига риоя қилинади, қаҳрамонларнинг ҳолати, ўсиш-ўзгариши объектив ҳақиқат нуқтаи назаридан талқин этилади. Объектив ҳақиқат эса ҳеч қачон факт-ҳодисаларни силлиқлаштиришга, чучмаллаштиришга йўл бермайди"[4,126].. Лаҳзалик қўрқинчларга қарамай Али Қушчи ўзининг қатъияти, фикрида





соби́т туриб, йўлидан қайтмади – Улуғбекка хиёнат қилмади: “Эй парвардигори олам, бошимга не савдолар солсанг, солғайсен ва лекин бу бандангдай беқарор ва субутсиз қилмагайсен!”. Мавлоно Муҳиддин қатъиятсизлиги, қўрқоқлиги орқасида қизи Хуршидабонуни қурбон қилишга мажбур бўлади: “кўз олдига салкам уч ой ётган мудҳиш ҳибсхона келди-ю, розилик беришдан бошқа чора топа олмади”.

Али Қушчи (субъект) маърифат йўли (объект)ни танлади (предикат).

Мавлоно Муҳиддин (субъект) бойлик ва жон омонлиги йўли (объект)ни танлади (предикат).

Қаландар Қарноқий (субъект) илм аҳли (объект) ни танлади (предикат).

Шу тарзда тўғри йўлни танлаган қаҳрамон учун мукофот, эгри йўлдан кетган персонож учун жазо воқеланади ҳамда асар сюжетида келиб чиқадиган умумий хулоса жиҳатидан Қобил ва Ҳобил қиссаси, Эгри ва Тўғри эртаги, уч оға-ини образи мавжуд эртақлар (“Кенжа ботир”, “Булбулигўё”), Муқбил ва Мудбир ҳикояти (Навоий), “Сароб” романи (Абдулла Қаҳҳор) билан яқинлашади.

Таклиф

О.Ёқубовнинг 80-йиллар ўрталарида ёзилган “Оққушлар, оппоқ қушлар” романига “Эр бошига иш тушса...”нинг мантикий давоми сифатида қараш мумкин. “Эр бошига иш тушса...”да йўл бошида турган уч оғайни тасвирланган бўлса, “Оққушлар, оппоқ қушлар” романида нисбатан “қайтиш” – сарҳисоб арафасидаги уч оғайнини кўрамыз. Улар йўл танловини амалга ошириб бўлган, моҳиятан мукофот/жазо қаршисида турган персонажлардир. Модомики, уч оғайни архетипик образи билан боғлиқ тарзда йўл мотивининг персонаж танлови сифатидаги аҳамиятини жамиятда юз берган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар билан алоқада тадқиқ этаётган эканмиз, 80-йиллардаги жамиятнинг ижтимоий манзарасини бир қатор эслаб ўтишга тўғри келади. “80-йиллар ўрталарига келиб шўро жамияти ҳам иқтисодий, ҳам ижтимоий, ҳам маънавий жабҳаларда инқирозга юз тутгани аён бўлиб қолди. Жамиятда узоқ йиллардан бери маддалаб келган иллатларни, касални яширсанг, иситмаси ошкора деганларидек, энди яширишнинг иложи ҳам қолмаган, улар жамиятни адои тамом этган эди”[1,104]. “Оққушлар, оппоқ қушлар”да уч оғайни образи (Музаффар, Шоввоз, Расул Нуриддинов) – “амалдор – халқ – интеллигенция” схемасини ифодалайди[5,189]. Моҳиятан муаллифнинг ушбу асарида ҳам “Диёнат”даги Нормурод Шомуродов ва Воҳид Миробидов каби икки қарама-қарши қутб контрастлиги сақланганлиги аниқ сезилади. Муаллиф “Диёнат”даги каби жамиятда илдиз отган муаммоларнинг бош сабабчиси сифатида амалдорларни кўрсатди, оддий халқ айрим





амалдорларнинг кўзбўямачилиги, маънавий-ахлоқий жиҳатдан юзтубан кетишлари натижасида жабр кўрганини Музаффар ва Шоввоз зиддияти орқали ифодалайди. Оғайнилар орасидаги муносабатлар орқали, Матёқуб Қўшжонов айтмоқчи, жамиятдаги “ижтимоий ва маънавий тенгсизликлар” очиқланади. Бош мезони “тенглик”ка асосланиши бонг урилган жамиятда, 80-йилларга келиб ҳам тенгликнинг мавжуд эмаслиги тузумнинг асл аҳволини кўрсатиб беради.

М.Шералиева шўро ҳокимияти ўз фаолиятининг бошланишидан то интиҳосига қадар ўзини Стивен Карпманнинг “таъқибчи – қурбон – халоскор” архетипик учбурчагидаги “халоскор” ролида тақдим этишга интиланганини ёзади. 80-йилларда “порахўр амалдорлар – халқ – партия” архетипик учбурчаги[5,189-190]. “Оққушлар, оппоқ қушлар...” романида уч оғайни образи орқали акс этганлиги билан характерлидир. “Амалдор – ишчи-деҳқон – зиёли” схемасида учинчи оғайни – зиёли (Расул Нуриддинов) мавжуд вазиятда ҳар икки томон (Шоввоз ва Музаффар) ҳаракатларини таҳлил қилиб, уларнинг бирини тасдиқлаш, бошқасини инкор этиш вазифасини бажаради. Расул Нуриддинов образининг “Амалдор – ишчи-деҳқон” зидлигига муносабатини, позициясини намоён этувчи учинчи томон – зиёли сифатида танланиши бежиз эмас. Зиёли сифатида Расул Нуриддинов мавжуд муаммоларни ҳал этишга уринаётган, Музаффар Фармонов каби амалдорлар ҳомийлик қилувчи “зиёли”лардан азият чекаётган, айна вақтда уларга қарши тура олаётган қаҳрамон, “халоскор”дир (“Йўқ, бунга бардош қилиб, бир чеккада томошабин бўлиб туриш-жиноят!”).

Мунаққид Норбой Худойбергенов шундай ёзади: “Расул Нуриддинов ҳақиқат ва адолат йўлида мустаҳкам туради. Фармонов ўзининг ёшликда бирга ўсган, урушда ёнма-ён туриб, жон бериб жон олган дўсти бўлишига қарамасдан унга ён бермайди, аксинча, бундай қабих, манфур шахсларнинг асл башарасини очиб ташлашни ҳозирги кун талаби деб ҳисоблайди, шунга мувофиқ курашни изчил давом эттиради[6,198]. Масаланинг бу жиҳати [Расул Нуриддинов образида муаллиф образининг қоришиб кетгани билан баҳоланади. “Эр бошига иш тушса...”да Маҳкам, “Оққушлар, оппоқ қушлар”да Расул Нуриддинов образи Одил Ёқубов биографияси, қолаверса, ҳаётининг эътиқодларини акс эттиргани билан аҳамиятлидир. Расул нафақат Музаффарга (умуман сохта амалдорлар, сохта санъат вакиллари) қарши тура олди, балки оддий халқнинг – деҳқоннинг аянчли аҳволи ҳақида ўйлаб, изтироб чекди: “Ҳамма нарсаси инсон учун, инсоннинг бахт-саодати учун” деган шиоримиз қайда қолди? Пахта инсон учунми?..Шаҳардан келган ҳашарчининг аҳволи бу бўлса, қишу ёз даладан чиқмайдиган анов шўрлик пахтакорнинг ҳоли нима бўляпти?[7,70].





Қаҳрамонларнинг ёшликда аҳил-иноқ “уч оғайни ботирлар” бўлгани ретроспекция усули орқали берилади. Ёшликдан бирга улғайган дўстлар урушнинг сўнгги йилларида ҳарбий хизматга боради. Гоби саҳросини биргаликда пиёда кесиб ўтганлари билан боғлиқ хотиралар персонажлар характерини англашда қўл келади. “Музаффар, биринчи кунёқ батамом ҳолдан кетиб, йўлда йиқилиб қолгудек ночор аҳволга тушди. Икки дўсти ёрдам қўлини чўзди, Шоввоз уни опичлаб кетди, Расул автоматини кўтариб олди”[7,154] Командир буйруғи билан саҳрони яёв босиб ўтиш уч оғайни учун синов эди. Жисмоний заифлиги боис синовдан ўта олмаган Музаффар: “Дўстим Шораҳим! Расулжон! Бу яхшиликларингни унутган – номард! Элга омон қайтиб борсак... абадул-абад хизматларингда бўламан!” дея қасам ичади. Лекин ўғли Фотиҳ сабабли юзага келган муаммони бартараф этишда қасамини, Шоввознинг беминнат яхшилигини эсламайди. Чунки мансаб, амал, бойлик унинг кўзларини беркитган эди: “Йўқ, Музаффар Гоби саҳросида уларнинг ёрдамига муҳтож бўлса бўлгандир, аммо кейинчалик ўзининг нималарга қодир эканини кўрсатди. Гап жисмоний кучда эмас, руҳий камолотда, ақл-заковатда, тадбиркорликда эканини исбот қила олди”[7,60].

Музаффарда Шораҳимга бўлган рақиблик муносабати қишлоқнинг энг гўзал қизи Ойсулувнинг Музаффарни эмас, Шораҳим шоввозни танлаши орқали пайдо бўлган, Музаффар “институтни тугатибдики, бирда эски рақиблари устидан ғалаба қилиш орзуси билан яшаса, бирда Ойсулувни “куйдириш” умиди билан”[7,61] яшаган. Расул Нуриддиновнинг қизига совчи бўлиб борганда, кимсан УРС (ишчилар таъминоти бошқармаси) бошлиғининг илк марта рад жавобини олиши, дўстининг “ҳаётдан батамом узилиб қолганлиги” амалдор Музаффарнинг зиёли Расулдан узоқлашишига сабаб бўлди. Чунки Расул бошқа “зиёли”лар сингари дўстининг ишларини тўла-тўқис маъқулламади, амалга ошираётган ишларида келажакни ўйламаслиги, “улкан ислохотлар” муайян доирадагина чекланиб қолганлиги, оддий халқнинг аҳволида ўзгариш бўлмаслиги каби масалаларда Расулнинг аччиқ фикрлари асли ҳақиқат бўлса-да, Музаффар тан олишни истамайди.

Персонажлар ўртасидаги зиддият бевосита эмас, билвосита юзага чиқади. Фотиҳ (Музаффарнинг ўғли) – Шоқосим (Шораҳимнинг ўғли) ўртасидаги конфликтда Музаффарнинг танлови – ўғлининг айбдорлигини тан олмаслиги унинг қасамни бузгани, дўстига хиёнатини билдиради. Шоввозга (умуман, Шоввоз каби оддий халқ вакиллари) хиёнати қаҳрамоннинг маънавий-ахлоқий жиҳатдан батамом тубанлашувини, танлаган йўли нотўғри эканини ва синовдан ўта олмаганини ифодалайди. Воқеалар давомида бошлиғининг юқорига





чақирилиб, қайтмаётгани, ўзи бир неча ойдан бери ишини шаҳарга кўчиришга уринишидан Музаффарнинг маҳв бўлиши сезилиб туради, бу эса хиёнат қилган дўстнинг охир-оқибат жазоланиши муқаррарлигини кўрсатади.

Хулоса

Мазкур романда ҳам йўл мотиви синов ҳамда мукофот/жазо мотиви билан боғланади, шу тарзда “сафарга чиқиш – йўл – синов – мукофот/жазо” мотивлари схемаси тугаллик касб этади.

Хулоса сифатида айтилса, йўл мотиви уч оғайни архетипик образи билан доимий тарзда боғланади ва ҳаёт йўли танлови сифатида ёндош мотивлар орасида етакчи мақомида туради. Зеро, қаҳрамон учун бериладиган мукофот/жазо йўл мотиви (йўл танлови)га кўра фарқланади.

Адабиётлар:

1. Раҳмонов Б. Ўзбек адабий танқидчилиги. –Т.:“Fan ziyosi” нашриёти, 2023. –Б. 275
2. Леонид Теракопян. Ўтмиш ва бугуннинг ибратли сабоқлари. Китобда:О.Ёқубов. Сайланма. Уч жилдлик. Учинчи жилд. 1987. Б.513 .
3. Зайниддинова А. Улуғбек хазинаси ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. №2. 1980.-Б.62.
4. Худойберганов Н. Парвоз давом этади. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. –Т.:1980, 168 Б.
5. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя. Т.: «Akademnashr», 2016.-Б. 189
6. Худойберганов Н. Фош қилиш маҳорати. “Шарқ юлдузи” журнали. №6.-Т.:1987. -Б.207
7. Ёқубов О. Оққушлар, оппоқ қушлар...-Т.:Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. -Б.336





YUMSHOQ KO'NIKMALAR: QATTIQ KO'NIKMALARNI ORTDA QOLDIRADIGAN YANGI USTUNLIK

Astanova Nodira Djuraevna

Osiyo texnologiyalari universiteti
assistent o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-4819-9776

Zokirov Ulug'bek Inom o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistent o'qituvchisi

ORCID: 0009-0001-5357-3270

Annotatsiya. Ushbu maqolada yumshoq ko'nikmalar tushunchasi, uning ahamiyati va tarixi ko'rib chiqiladi. Yumshoq ko'nikmalar (soft skills) — bu insonlarning xarakter xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari va muloqot qobiliyatlari bo'lib, ish joyida va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishishda muhim rol o'ynaydi. Yumshoq ko'nikmalar qattiq ko'nikmalar (hard skills) dan farqli ravishda texnik bilim va mahoratlarga asoslanmaydi. Ushbu ko'nikmalar muloqot qilish, tashkilotchilik, jamoaviy ish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ko'nikmalar, ijodkorlik va moslashuvchanlikni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: yumshoq ko'nikmalar (soft skills), qattiq ko'nikmalar (hard skills), muloqot qilish, jamoaviy ish, tashkilotchilik, tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy ko'nikmalar, ijodkorlik, moslashuvchanlik, hissiy intellekt, mehnat bozori, ish joyida muvaffaqiyat, kelajakdagi ko'nikmalar

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие мягких навыков, их значение и история. Мягкие навыки (soft skills) — это личные качества, межличностные навыки и коммуникативные способности, которые играют важную роль в достижении успеха как на рабочем месте, так и в личной жизни. В отличие от жёстких навыков (hard skills), мягкие навыки не основаны на технических знаниях и умениях. Эти навыки включают в себя умение общаться, организаторские способности, работу в команде, критическое мышление, социальные навыки, креативность и адаптивность.

Ключевые слова: мягкие навыки (soft skills), жёсткие навыки (hard skills), общение, командная работа, организаторские способности, критическое мышление, социальные навыки, креативность, адаптивность, эмоциональный интеллект, рынок труда, успех на рабочем месте, навыки будущего.

Abstract: This article discusses the concept of soft skills, their importance, and their history. Soft skills are personal qualities, interpersonal skills, and communication abilities that play a significant role in achieving success both in the workplace and in personal life. Unlike hard skills, soft skills are not based on technical knowledge and expertise. These skills include communication,





organizational skills, teamwork, critical thinking, social skills, creativity, and adaptability.


Keywords: soft skills, hard skills, communication, teamwork, organizational skills, critical thinking, social skills, creativity, adaptability, emotional intelligence, labor market, workplace success, future skills.

Kirish. Yumshoq ko'nikmalarni ahamiyati. Yumshoq ko'nikmalar — bu odamlarning xarakter xususiyatlari va boshqalar bilan muvaffaqiyatli ishlash yoki o'zaro aloqalarni o'rnatishga yordam beruvchi shaxsiy ko'nikmalardir. Bunga jamoaviy ish, vaqtni boshqarish, empatiya va vazifalarni bo'lish kabi ko'nikmalar kiradi.

Yumshoq ko'nikmalar qattiq ko'nikmalar (inglizcha: Hard Skills) dan farqli ravishda texnik bilim va mahoratlar emas. Masalan, kompyuter dasturlash yoki hisob-kitob qilish qattiq ko'nikmalar hisoblanadi. Yumshoq ko'nikmalar esa boshqalar bilan munosabat o'rnatish, jamoa bilan ishlash va rahbarlik qilish kabi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Yumshoq ko'nikmalar (soft skills) - bu ish joyida va shaxsiy hayotda zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar, odatlar, shaxslararo qobiliyatlar va muloqot qobiliyatlar. Ular odamlar bilan samarali muloqot qilish, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash, vaqtni boshqarish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Yumshoq ko'nikmalarga misollar:



Yumshoq ko'nikmalar faqatgina professional muvaffaqiyat uchun emas, balki shaxsiy rivojlanish va samarali muloqot uchun ham muhimdir. Ular xodimlarning jamoaviy ish qobiliyatini oshiradi, muammolarni samarali hal qilishga yordam beradi va ish joyidagi munosabatlarni yaxshilaydi.





"Yumshoq ko'nikmalar" atamasi 1960-yillarning oxirida AQSh armiyasi tomonidan yaratilgan. Dastlab, bu atama mashinadan foydalanishni talab qilmaydigan har qanday mahoratni bildirgan. Keyinchalik u ijtimoiy va muloqot qobiliyatlarni ham o'z ichiga olgan holda kengaytirildi.

Qattiq ko'nikmalar (hard skills) texnik bilim va malakalarni anglatadi, yumshoq ko'nikmalar esa insonning professional va shaxsiy fazilatlarini ifodalaydi. Ikkala turdagi ko'nikmalar ham ish joyida muhim rol o'ynaydi, lekin yumshoq ko'nikmalar odamlar bilan ishlashda asosiy ahamiyatga ega.

Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan tuzilgan kelajag ish o'rinlari hisobotiga ko'ra, 2025-yilga kelib murakkab muammolarni yechish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, odamlarni boshqarish va emosional intellekt kabi ko'nikmalar ish joylarida eng muhim ko'nikmalar qatoriga kiradi deb prognoz qilingan edi. Haqiqatdan ham bugungi kunga kelib, bu mahoratlarning zarur va ahamiyatli faktorga aylandi.

Ko'pincha, ushbu yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati yetarli darajada qadrlanmaydi. Tashkilotlar ko'pincha xodimlarning ish joyida o'zini qanday tutishi, tashabbus ko'rsatishi, samarali muloqot qilishi va tinglash ko'nikmalariga ega ekanligini taxmin qilishadi. Ammo amalda bu doimo to'g'ri emas.

Yumshoq ko'nikmalar boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish, ishonchni shakllantirish va jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat ish joyidagi muvaffaqiyat, balki kompaniyangizning rivojlanishi va shaxsiy hayotingizdagi muvaffaqiyatlar uchun ham zarurdir.

Nima uchun yumshoq ko'nikmalar muhim? Ko'pchilik bilan muloqot qilish va hamkorlik qilish jarayonlari ma'lum bir yumshoq ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Masalan, kompaniyada siz yangi shartnomani qo'lga kiritish uchun muzokaralar olib borishingiz, o'z g'oyalaringizni hamkasblaringizga taqdim etishingiz yoki yangi ish topish uchun tarmoq yaratishingiz mumkin. Har kuni yumshoq ko'nikmalardan foydalanamiz va ularni rivojlantirish ko'proq biznes muvaffaqiyatiga erishish va karyerani tezroq rivojlantirishga yordam beradi.

Aksincha, yumshoq ko'nikmalar yetishmasligi sizning imkoniyatlaringizni cheklashi yoki hattoki biznesingizning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga olib kelishi mumkin. Kuchli liderlik, vazifalarni bo'lish, jamoaviy ish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish orqali loyihalarni yanada samarali boshqarishingiz, hammaga mos keladigan natijalarni taqdim etishingiz va hatto boshqa odamlar bilan muloqotingizni yaxshilash orqali shaxsiy hayotingizda ham ijobiy o'zgarishlarga erishishingiz mumkin.

Yumshoq ko'nikmalarning ahamiyatini qo'llab-quvvatlovchi misollar: Karyera o'sishi va lavozim ko'tarilishi. 2017-yilda o'tkazilgan iCIMS Hiring





Insights tadqiqotiga ko'ra, "Ishga qabul qilish bo'yicha mutaxassislarining 94 foizi yumshoq ko'nikmalari kuchliroq bo'lgan xodimlar tajribasi ko'proq bo'lgan, lekin yumshoq ko'nikmalari zaifroq bo'lgan xodimlarga qaraganda rahbarlik lavozimiga ko'tarilish ehtimoli ko'proq deb hisoblaydi."

Zamonaviy ish joyi o'zaro munosabatlarga asoslangan. Faol tinglash, hamkorlik qilish, g'oyalarni taqdim etish va hamkasblar bilan muloqot qilish kabi ko'nikmalar zamonaviy ish joylarida yuqori baholanadi. Kuchli yumshoq ko'nikmalar mahsuldor, hamkorlikka asoslangan va sog'lom ish muhitini ta'minlaydi, bu esa tobora raqobatbardosh bo'lib borayotgan dunyoda tashkilotlar uchun muhimdir.

Mijozlar va klientlar yumshoq ko'nikmalarni talab qilishadi. Hozirgi kunda iste'molchilar internet va smartfonlar tufayli qayerdan xarid qilishlarini tanlash imkoniyatiga ega. Ular uchun qulaylik va arzon narxlar oson topiladi, shuning uchun mijozlarga xizmat ko'rsatish muayyan biznesni tanlashga ta'sir qiluvchi omilga aylanadi.

Kelajakdagi ish joylari yumshoq ko'nikmalarga tayanadi. Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt tufayli ishlarning katta qismi yumshoq ko'nikmalarga tayanadigan bo'ladi. Deloitte Access Economics tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, "2030-yilgacha barcha ishlarning uchdan ikki qismi yumshoq ko'nikmalar bilan bog'liq bo'ladi".

Yumshoq ko'nikmalarni avtomatlashtirish qiyin. Hissiy intellekt kabi yumshoq ko'nikmalarni avtomatlashtirish va o'zlashtirish qiyin va yaqinda avtomatlashtirish imkoniyati yo'q. Shu sababli, ular yaqin kelajakda yanada qadrlil bo'lib borishi kutilmoqda.

Ishga qabul qilish bo'yicha mutaxassislar yumshoq ko'nikmalarni talab qilishadi. Yumshoq ko'nikmalar mehnat bozorida juda talab qilinadi. Harvard talabasi tomonidan 2017-yilda yozilgan mehnat bozorida ijtimoiy ko'nikmalarning ahamiyati haqidagi maqolaga ko'ra, AQSh mehnat bozorida yuqori darajadagi ijtimoiy o'zaro aloqalarni talab qiladigan ish o'rinlari ulushi qariyb 12 foizga oshgan. LinkedIn tadqiqotlariga ko'ra, eng talab qilinadigan yumshoq ko'nikmalar quyidagilardan iborat:

Muloqot qilish (Kommunikatsiya): Muloqot qilish qobiliyati samarali ishlash uchun juda muhim. Bu ko'nikma boshqa odamlar bilan fikr almashish, tushuntirish, tinglash va ma'lumotni aniq yetkazish imkonini beradi. Yaxshi muloqot qilish qobiliyati o'z g'oyalarni aniq ifodalash, muammolarni aniqlash va yechimlarni taklif qilish imkoniyatini beradi. Ish joylarida xodimlar va rahbarlar o'rtasida tushunmovchiliklarni kamaytiradi, shuningdek, mijozlar bilan muvaffaqiyatli munosabatlarni o'rnatishda yordam beradi.

Tashkilotchilik (Organizational Skills): Tashkilotchilik ko'nikmasi vaqtni samarali boshqarish, resurslarni taqsimlash va topshiriqlarni rejalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Yaxshi tashkilotchilik ishlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlaydi. Ushbu ko'nikma loyihalarni muvaffaqiyatli





boshqarish, maqsadlarga erishish va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Jamoaviy ish (Teamwork). Jamoaviy ish boshqa odamlar bilan birgalikda ishlash va umumiy maqsadlarga erishish uchun juda muhimdir. Jamoaviy ish ko'nikmasi muvaffaqiyatli hamkorlikni ta'minlaydi, muammolarni birgalikda hal qilish va yangi g'oyalarni yaratishga yordam beradi. Boshqalarni tinglash va ularning fikrlarini inobatga olish orqali yaxshiroq qarorlar qabul qilish mumkin.

Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) Tanqidiy fikrlash muammolarni chuqur tahlil qilish, asosiy sabablarni aniqlash va ularga yechim topish imkoniyatini beradi. Ma'lumotlarni o'rganish, xatolarni aniqlash va to'g'ri qarorlar qabul qilish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ish joylarida tez o'zgarishlarga moslashish va innovatsiyalarni yaratishda zarur ko'nikma.

Ijtimoiy ko'nikmalar (Social Skills). Boshqalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish va hamkorlik qilish qobiliyatini oshiradi. Ish joyida jamoa a'zolari bilan yaxshi aloqalar o'rnatish va mijozlar bilan muloqot qilishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Stressni boshqarish, nizolarni hal qilish va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Ijodkorlik (Creativity). Ijodkorlik yangi g'oyalarni ishlab chiqish, innovatsiyalar yaratish va mavjud muammolarga noyob yechimlar topishda juda muhimdir. Yangi mahsulotlar yoki xizmatlar yaratishda, marketing strategiyalarini ishlab chiqishda va kompaniyani raqobatbardosh qilishda katta rol o'ynaydi. Ijodkorlikni rivojlantirish orqali o'rganish jarayonlari va innovatsiyalarni joriy qilish tezlashadi.

Muvofiqlashish qobiliyati (Adaptability). O'zgargan sharoitlarga moslashish, yangi vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishlash va o'zgarishlarga tez javob berish qobiliyatidir. Tez rivojlanayotgan texnologiyalar va o'zgarmoqda bo'lgan biznes muhitida moslashish muhim omil hisoblanadi. Moslashuvchanlik yuqori darajadagi stressni boshqarish va turli muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Adabiyotlar.

1. Rustamovna, D. L. BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA KASBIY KO 'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA "SOFT SKILLS" AHAMIYATI.
2. Carnegie, D. (1981). How to Win Friends and Influence People. Pocket Books.
3. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
4. Djuraevna, A. N., & Inom o'g, Z. U. B. (2025). MENEJERLARNING INNOVATION BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI





SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(5), 503-507.

5. Bekmurodov, B., & Zokirov, U. (2024). Raqamli moliyaviy texnologiyalarning boshqaruvdagi roli va uning O 'zbekiston uchun ahamiyati. SYNAPSES: Insights across the disciplines, 1(4), 79-85.
6. Yacob, Y., Ali, J. K., Roslin, R., & Ting, H. (2018). The relationships between member participation, trust, Behavioural loyalty, and the moderating effect of ethnicity: An explanatory study of value co-creation among cooperative members in Sarawak. International Journal of Business and Society, 19(2), 505-522.
7. Hidayati, T., Ilmi, Z., & Kasuma, J. (2022). How authentic leadership promotes job performance? The mediating role of organizational climate. International Journal of Sustainable Development and Planning, 17(5), 1431-1440.

INNOVATIVE
WORLD



**PROFESSIONAL SPORT KLUBLARIDA MENEJMENT TIZIMI VA MOLIYAVIY BOSHQARUV TAMOYILLARI****Abdiraimov Shog'dor Davronovich**

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti katta o'qituvchi
shogdorakun@inbox.ru

Zokirov Ulug'bek Inom o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti assistenti,
ORCID: 0009-0001-5357-3270

Mamatqulov Timur Alisher o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti talabasi,
timurmamatkulov2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional sport klublarida menejment tizimi va moliyaviy boshqaruv tamoyillari tahlil qilinadi. Sport menejmenti sport tashkilotlarini samarali boshqarish uchun muhim rol o'ynaydi, ayniqsa moliyaviy jihatdan barqarorlikni ta'minlashda. Maqolada sport klublarida strategik rejalashtirish, daromad manbalari, homiylik va marketing strategiyalari, shuningdek, byudjetni rejalashtirish va moliyaviy monitoring usullari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot sport klublarining barqaror rivojlanishi uchun moliyaviy boshqaruv tamoyillarining ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Sport menejmenti, moliyaviy boshqaruv, sport klublari, strategik rejalashtirish, homiylik, marketing, daromad manbalari, byudjet, investitsiya, sport iqtisodiyoti.

Abstract. This article analyzes the management system and financial management principles in professional sports clubs. Sports management plays a crucial role in efficiently managing sports organizations, especially in ensuring financial stability. The article discusses strategic planning, revenue sources, sponsorship and marketing strategies, as well as budget planning and financial monitoring methods in sports clubs. The study highlights the importance of financial management principles for the sustainable development of sports clubs.

Keywords: Sports management, financial management, sports clubs, strategic planning, sponsorship, marketing, revenue sources, budget, investment, sports economy.

Kirish. Sport sohasi global iqtisodiyotning muhim qismi bo'lib, professional sport klublari uning asosiy tuzilmasini tashkil etadi. Sport tashkilotlari muvaffaqiyatining asosi nafaqat sport natijalarida, balki moliyaviy boshqaruv va menejment tizimining samaradorligida ham namoyon bo'ladi. Bugungi kunda sport klublari o'z faoliyatini uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik asosida tashkil etishi zarur. Ayni paytda ko'plab professional



sport klublari moliyaviy inqiroz, daromad manbalarining beqarorligi, homiylik shartnomalarining qisqa muddatliligi va infra-tuzilma sarmoyalarining yetishmovchiligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sport menejmenti va moliyaviy boshqaruv sohasida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Masalan, Mullin, Hardy va Sutton (2014)⁹ sport menejmentining strategik aspektlarini o'rganib chiqishgan, Ross, James va Vargas (2016)¹⁰ esa sport marketingining muhim jihatlariga e'tibor qaratgan. Deloitte (2023)¹¹ tomonidan e'lon qilingan hisobot esa professional sport klublarining moliyaviy boshqaruv bo'yicha eng yaxshi tajribalarini yoritadi.

Metodologiya. Tadqiqot davomida tahliliy va taqqoslash usullari qo'llanildi. Tadqiqot doirasida 2018-2023 yillar oralig'ida faoliyat yuritgan 50 ta professional sport klubi tahlil qilindi. Ushbu klublar asosan Yevropa va Amerika mamlakatlariga tegishli bo'lib, ularning moliyaviy natijalari va menejment tizimlari chuqur o'rganildi. Ma'lumotlar ochiq manbalar, ilmiy maqolalar va sport iqtisodiyoti bo'yicha ekspert hisobotlari asosida tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, professional sport klublarining moliyaviy barqarorligi va menejment samaradorligi bir nechta omillarga bog'liq. Eng avvalo, daromad manbalarining diversifikatsiyasi sport klublari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yevropaning eng yirik 20 ta futbol klubi 2022-yilda translyatsiya huquqlaridan o'rtacha 40-50% daromad olgan, homiylik esa klub byudjetining 30-35% qismini tashkil etgan. Bundan tashqari, chiptalar sotuvi hali ham muhim daromad manbalaridan biri bo'lib qolmoqda, biroq pandemiyadan keyingi davrda stadionlarga tashrif buyuruvchilar soni 15-20% kamaygan.

Klub mahsulotlari (merchandising) va litsenziyalash bo'yicha strategiyalar ham kengaymoqda, bu esa qo'shimcha daromad oqimlarini yaratishga yordam bermoqda. Ayniqsa, mashhur sport brendlariga ega klublar mahsulotlarini global miqyosda sotish orqali sezilarli daromad olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Misol uchun, «Manchester United» va «Real Madrid» klublari yiliga 300 million dollardan ortiq daromadni rasmiy futbolkalar va litsenziyalangan mahsulotlar savdosidan olmoqda. Bundan tashqari, onlayn savdo platformalarining rivojlanishi klub mahsulotlarini global bozorga chiqarish va muxlislar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Menejment tizimining samaradorligi ham sport klublarining muvaffaqiyatida muhim rol o'ynaydi. Yangi menejment strategiyalari orqali

⁹ Mullin, B. J., Hardy, S., & Sutton, W. A. (2014). Sport Marketing. Human Kinetics. Ross, S. D., James, J. D., & Vargas, P. (2016). Sport Consumer Behavior. Routledge.

¹⁰ Ross, S. D., James, J. D., & Vargas, P. (2016). Sport Consumer Behavior. Routledge.

¹¹ Deloitte (2023). Annual Review of Football Finance.





klublarning daromad olish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masalan, “big data” orqali muxlislarning talablarini aniqlash va personalizatsiya strategiyalarini ishlab chiqish, daromad oqimlarini oshirishga yordam bermoqda. Moliyaviy monitoring va audit tizimlarining kuchaytirilishi esa xarajatlarni nazorat qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun UEFA “Financial Fair Play (FFP)” qoidalarini joriy qildi, bu klublar daromadlari va xarajatlari muvozanatlangan bo’lishi talab qilinadi. Bu qoidaga rioya qilmagan klublar jarimaga tortiladi yoki musobaqalardan chetlatiladi. Shu bilan birga, sport infratuzilmasiga investitsiya jalb qilish klubning uzoq muddatli rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydi. Zamonaviy stadionlar va sport majmualariga sarmoya kiritish nafaqat sport natijalariga, balki klubning umumiy daromadiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Masalan, «Tottenxem Hotspur» klubi o’zining yangi stadioniga 1 milliard funt sterling miqdorida investitsiya kiritgan bo’lsa, bu loyiha klubning umumiy daromadini 20% ga oshirishga yordam bergan.

Tahlil. Sport klublarining moliyaviy boshqaruv tizimi murakkab va ko’p qirrali bo’lib, samarali strategiyalarni talab etadi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va xarajatlarni boshqarish klublar uchun asosiy ustuvor yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Klub byudjetining to’g’ri rejalashtirilishi moliyaviy muvozanatni saqlashda muhim rol o’ynaydi, aks holda, ortiqcha xarajalar klubning iqtisodiy ahvolini yomonlashtirishi mumkin. Muvaffaqiyatli klublar xarajatlarni optimallashtirish va daromadlarni oshirish strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Homiylik va marketing sport klublari uchun katta daromad manbai bo’lib, ularning global va mahalliy brendlar bilan hamkorligi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Sport klublarining moliyaviy boshqaruvi global miqyosda turlicha rivojlangan bo’lib, Amerika va Yevropa tizimlari o’rtasida sezilarli farqlar mavjud:

Ommabop model	Yevropa klublari	Amerika klublari (NBA, NFL, MLB)
Daromad manbalari	Chiptalar, homiylik, translyatsiya huquqlari	Franchise tizimi, homiylik, translyatsiya
Moliya nazorati	UEFA FFP orqali nazorat	Tejamkorlik cheklovlari mavjud (salary cap)
Transfer bozori	Transfer summaları juda yuqori	NFL, NBA’da treyd tizimi mavjud
Investorlar roli	Xususiy egalik va aksiyadorlar	Franchise egalari va shartnomalar

Yuqoridagi farqlar shuni ko’rsatadiki, Amerikadagi sport ligalari yanada barqaror moliyaviy tizimga ega, chunki u yerda daromad va xarajatlarni tartibga soluvchi qat’iy qoidalar mavjud. Yevropa klublarida esa individual





klublar moliyaviy boshqaruvda mustaqilroq bo'lib, bu ba'zan ortiqcha xarajatlarga olib keladi.

Xulosa. Professional sport klublari samarali menejment va moliyaviy boshqaruv tamoyillarini qo'llagan holda, barqaror rivojlanishga erishishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, daromad manbalarining diversifikatsiyasi, moliyaviy monitoring, homiylik va marketing strategiyalarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi sport klublarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ayniqsa, translyatsiya huquqlari va merchandising kabi daromad oqimlarining kengayishi klublarning moliyaviy mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda texnologik innovatsiyalar va sun'iy intellekt tizimlari sport menejmenti va moliyaviy boshqaruvda yanada samarali yondashuvlarni shakllantirishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

1. Mullin, B. J., Hardy, S., & Sutton, W. A. (2014). Sport Marketing. Human Kinetics.
2. Ross, S. D., James, J. D., & Vargas, P. (2016). Sport Consumer Behavior. Routledge.
3. Smith, A. C. T., & Stewart, B. (2010). The Economics of Sports Governance and Policy. Taylor & Francis.
4. Deloitte (2023). Annual Review of Football Finance.
5. Samur, S. (2017). Management Model in Sports Clubs. International Journal of Development Research.
6. Bilohur, V., Skrypchenko, I., & Nepsha, O. (2022). The concept of sports management as a factor of effective sports activities. Humanities Studies, (12), 60-70.
7. Simion, A. (2022). ANALYSIS AND EVALUATION OF FINANCIAL MANAGEMENT STRATEGIES OF SPORTS CLUBS. Annals of the University of Craiova, Economic Sciences Series, 2(50).
8. Hoye, R., Smith, A. C., Nicholson, M., & Stewart, B. (2015). Sport management: principles and applications. Routledge.
9. Djuraevna, A. N., & Inom o'g, Z. U. B. (2025). MENEJERLARNING INNOVATSION BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(5), 503-507.
10. Bekmurodov, B., & Zokirov, U. (2024). Raqamli moliyaviy texnologiyalarning boshqaruvdagi roli va uning O'zbekiston uchun ahamiyati. SYNAPSES: Insights across the disciplines, 1(4), 79-85.





MUNDARIJA TABLE OF CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ		
1.	PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CORRECTION OF SIGNS OF DEVIANCE IN ADOLESCENTS Ramazonov Jahongir Djalolovich Bekmurodova Ruxsora Ulug'bek Qizi	3
2.	O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "BAXT" KONSEPTINING LINGVISTIK VA MADANIY JIHATLARI Ashurova Maftuna Asqar qizi	10
3.	Зикри шуарои тошкандӣ дар "Маҷолис ун-нафоис"-и Навоӣ Ҳасан СОДИҚОВ	15
4.	ZAMONAVIY HAYKALTAROSHLIK SAN'ATIDA ILHOM JABBOROVNING O'RNI Axatova Zohira Aktam qizi	19
5.	BADIIY MAHORAT VA USLUB Nasiba Norova	25
6.	Ta'lim tarbiya jarayonida bolani turli hayotiy vazifalarni hal qilishga o'rgatish metodikasi Ramazonova Yulduz	29
7.	ОДИЛ ЁҚУБОВ НАСРИДА УЧ ОҒАЙНИ АРХЕТИПИК ОБРАЗИ Mamtaliyeva Fotima Odiljon qizi	34
8.	YUMSHOQ KO'NIKMALAR: QATTIQ KO'NIKMALARNI ORTDA QOLDIRADIGAN YANGI USTUNLIK Astanova Nodira Djuraevna Zokirov Ulug'bek Inom o'g'li	42
9.	PROFESSIONAL SPORT KLUBLARIDA MENEJMENT TIZIMI VA MOLIYAVIY BOSHQARUV TAMOYILLARI Abdiraimov Shog'dor Davronovich Zokirov Ulug'bek Inom o'g'li Mamatqulov Timur Alisher o'g'li	48

